



O'zbekiston Milliy  
kutubxonasi

№ 8390-316a-2289-f267-c198-5155-4706  
Hujjat yaratilgan sana: 2026-06-05  
Ariza raqami: 297284281

Hujjat berilgan: "POYTAXT EXCLUSIVE"  
MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT  
STIR: 306672118

**Nashrlarga kitobning ISBN xalqaro standart tartib raqamini berish  
MA'LUMOTNOMASI**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Axborot-kutubxona sohasida davlat xizmatlari ko'rsatishning ayrim ma'muriy reglamentlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 2023-yil 1-may 176 - sonli qarori talablari asosida kitob mahsulotiga quyidagi ISBN xalqaro standart tartib raqami belgilash uchun taqdim etildi:

Muallif	Kitob nomi	Kitob janri	Kitob chop etiladigan til	Kitob hajmi	Kitob adadi	Berilgan ISBN tartib raqami
Z.O. XUDAYOROVA	RAQAMLASHGAN JAMIYAT SHAROITIDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI: IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL	monografiya	O'zbek tili lotin yozuvida	A5 140 bet	50	978-9910-5300-1-2

TOSHBKOVA RAHIMA FARXOD QIZI

Mazkur hujjat Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 sentyabrdagi 728-son qaroriga muvofiq Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida shakllantirilgan elektron hujjatning nusxasi bo'lib, davlat organlari tomonidan ushbu hujjatni qabul qilishni rad etishlari qat'iy taqiqlanadi. Hujjat haqiqiylikini repo.gov.uz veb-saytida hujjatning noyob raqamini kiritib yoki mobil telefon yordamida QR- kodni skaner qilish orqali tekshirish mumkin.

0883





**YANGI AVLOD ADABIYOTLARI**

**Xudayorova Z.O.**

**RAQAMLASHGAN JAMIYAT SHAROITIDA  
INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH  
TENDENSIYALARI: IJTIMOIIY-FALSAFIY  
TAHLIL**

**Monografiya**



**Chirchiq - 2025**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRLIGI**  
**CHIRCHIQ OLIY TANK QO‘MONDONLIK MUHANDISLIK BILIM YURTI**

**Z.O. XUDAYOROVA**

**RAQAMLASHGAN JAMIYAT SHAROITIDA INSON KAPITALINI**  
**RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI: IJTIMOIIY-FALSAFIY TAHLIL**

**Monografiya**

**Chirchiq – 2025**

## UO‘K: 355.01

Raqamlashgan jamiyat sharoitida inson kapitalini rivojlantirish tendensiyalari: ijtimoiy-falsafiy tahlil: Monografiya / Xudayorova Z.O. – Chirchiq: CHOTQMBY nashriyoti, 2025. – 139 b.

Monografiyada inson kapitali muammosi, uning har bir davlatning taqdirini belgilaydigan, zamonaviy dunyo taraqqiyotining dinamikasi, insonning innovatsion, ijodiy faoliyati, fan, texnika va texnologiyalarning rivojlanishini belgilovchi omil sifatida dolzarbligi keng yoritilgan.

Monografiya faylasuf olimlar, oliy harbiy bilim yurtlari kursantlari, talabalar va keng kitobxonlarga mo‘ljallangan.

Taqrizchilar:

CHOTQMBY Tabiiy ilmiy fanlar kafedrası dotsenti, p.f.f.d (PhD), dotsent,

S. Ramanova

ChDPU Gumanitar fanlar kafedrası professori, Milliy g‘oya va huquq ta’limi kafedrası mudiri, f.f.d. (DSc), professor

G. G‘affarova

## KIRISH

Jahonda inson kapitali muammosi har bir davlatning taqdirini belgilaydigan, zamonaviy dunyo taraqqiyotining dinamikasi, insonning innovatsion, ijodiy faoliyati, fan, texnika va texnologiyalarning rivojlanishini belgilovchi omil sifatida dolzarflik kasb etmoqda. BMTning Taraqqiyot dasturi, Inson kapitali indeksi, Jahon bankining “Inson kapitalini rivojlantirish” loyihasi ham inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, bugungi global axborot makonida uni bevosita eng afzal va eng qimmatli resursga aylantirmoqda. Shu ma’noda inson kapitalining jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi o‘rni bilan bog‘liq uning namoyon bo‘lish xususiyatlari, uni shakllantirish va rivojlantirish omillari, mezon hamda mexanizmlarini aniqlash zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

Jahon ilm-fanida bugungi kunda inson kapitalini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-nazariy, amaliy va fundamental tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, inson kapitali konsepsiyasi, uni shakllantirish mezonlari, rivojlantirish omillari, inson kapitalining tuzilishi va turlari hamda uning jamiyat modernizatsiyasi va barqaror rivojlanish omili ekanligi bilan bog‘liq ilmiy tadqiqotlar shular jumlasidandir. Ma’lumki, rivojlangan davlatlarda inson kapitali asosiy boylik, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning asosiy mezoni hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan ham, inson kapitalini shakllantirish, rivojlantirish, uning ijodiy fazilatlari va qobiliyatlari, inson kapitaliga sarmoya kiritish masalasi dunyo fanining asosiy va markaziy muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda. Bu esa inson kapitalining mamlakatni barqaror rivojlanishidagi ahamiyatiga doir tadqiqotlarga bo‘lgan ehtiyojni yanada oshirmoqda.

Mamlakatimizda inson kapitalini rivojlantirishda “davlat – inson uchun” tamoyili asosida ishlash tizimini takomillashtirish davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda “Inson qadri uchun” tamoyili asosida xalqimizning farovonligini

yanada oshirish, “adolatli ijtimoiy siyosat, inson kapitalini rivojlantirish”<sup>1</sup> olib borilayotgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Shu nuqtai nazardan, bugungi globallashuv jarayonlarida inson kapitali va uning tarkibiy unsurlarini baholash tizimini kengaytirish, respublikada inson kapitalini rivojlantirish bo‘yicha imkoniyatlarni aniqlash mexanizmlarini, ijtimoiy qonuniyatlarini, usul va vositalarini tadqiq qilish ilmiy jamoatchilikning muhim tadqiqot obyektlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026- yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti strategiyasi to‘g‘risida”, 2018-yil 18-sentabrdagi PF-5544-son “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 26- martda.gi PF-5975-son “Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmonlari va 2018-yil 14-iyuldagi PQ-3856-son “Aholi bandligini ta‘minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori hamda sohaga oid boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. G‘arb mamlakatlarida inson kapitalidan turli sohalar doirasida samarali foydalanish asoslari atroflicha o‘rganilgan. O‘tgan asrning o‘rtalarida g‘arb olimlaridan G.Bekker, T.Shuls, M.Bloug, Dj.Minser, S.Polachek<sup>2</sup> asarlarida va ilmiy tadqiqot ishlarida inson kapitali konsepsiyasining nazariy va uslubiy asoslari shakllantirilgan. Shuningdek, inson kapitalini iqtisodiy o‘shishga ta‘sir etuvchi omil sifatida - N.Menkyu,

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni // <https://lex.uz/uz/docs/5841063#5844198>

<sup>2</sup> Berger G. Investment in Human Capital: A Theoretical Analysis // Journal of Political Economy, 1962. Vol.70(5, Part 2, Supplemrt), Pp.9-49; Schults T.W. Investment in Human Capital // The American Economic Review, 1961. Vol.51(1), -Pp.1-17; Blaug M. The empirical status of human capital theory: A slightly jaundiced survey // Journal of economic literature. 1976. Sep 1, 14(3), -Pp.827-855; Jacob M. Investment in Human Capital and Personal Income Distribution // Journal of Political Economy, 1958. August, Vol.66, -Pp.281-302; Mincer J., Polachek S. Family Investments in Human Capital: Earnings of Women // Journal of Political Economy, 1974. Vol.82, number 2, Part 2, March-April / <http://www.nber.org>

D.Romer, D.Veяl, Dj.Benxabib, M.Shpigel<sup>3</sup>, inson kapitalini ta'lim orqali baholash - D.Koen, M.Soto, V.Luts, A.Gujon<sup>4</sup>larning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan.

MDH mamlakatlarida ham inson kapitalidan ratsional foydalanish va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka erishishda uning samarali jihatlarini asoslashga doir ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, innovatsion rivojlanishning ustuvor omili sifatida makro-, mezo- va mikro-darajada inson kapitalining rivojlanishi va amal qilishining turli jihatlarini - L.G.Simkina, A.V.Koritskiy, Y.A.Korchagin, I.V.Skoblyakova, V.Birbkov, S.Kovalenok, Z.R.Xabibullina, A.Podberezkin singari olimlar tomonidan o'rganilgan<sup>5</sup>.

O'zbekistonda ham so'ngi yillarda inson kapitalidan oqilona foydalanishning ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq etish ishlari tobora jadallashib bormoqda va bir qancha olimlar bu muammoni o'rganishga o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Xususan, inson kapitalini rivojlantirishning iqtisodiy jihatlarini akademiklar R.A.Ubaydullayeva, K.X.Abduraxmonov, S.S.G'ulomov, Sh.G.Akramovalar tomonidan o'rganilgan. Shuningdek, inson kapitalining nazariy-metodologik asoslari va ijtimoiy-falsafiy jihatlarini ham ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Xususan, M.Abdullayeva ta'limda inson kapitali

<sup>3</sup> Mankiw, N., Romer, G. and Weil, D. A Contribution to the Empirics of Economy Growth // Quarterly Journal of Economy, 1992. Vol.107, -Pp.407-437 Benhabib, Jess and Mark, M. Spiegel. The Role of Human Capital in Economic Development: Evidence from Aggregate Cross-Country Data // Journal of Monetary Economics, 1994. Vol.34, -Pp.143-173.

<sup>4</sup> Cohen, D., Soto, M. Growth and human capital: good data, good results // Journal of Political Economy. Growth, 2007. XII, -Pp.51-76; Luts, W. and Goujon, A. The world's changing human capital stock: Multi-state population projections by educational attainment // Population and Development Review, 2001. Vol.27(2), -Pp.323-339.

<sup>5</sup> Симкина, Л.Г. Человеческий капитал в инновационной экономике. – СПб.: СПбГНЭА, 2000. 48 с.; Корицкий А.В. Человеческий капитал как фактор экономического роста регионов России. Монография / науч. ред. Т.В.Григорова. - Новосибирск: Сибирский университет потребительской кооперации, 2010. – 368 с.; Корчагин Ю.А. Человеческий капитал и инновационная экономика России. Монография. – Воронеж: ЦИРЭ, 2012; Скоблякова И.В. Циклы воспроизводства человеческого капитала. Монография. – М.: Манинстроение-1, 2006. – 196 с.; Хабибуллина З.Р. Человеческий капитал креативного работника: Дисс.я канд.э.н. – Санкт-Петербург, 2021. – 184 с.; Человеческий капитал: теория, исторический опыт и перспективы развития. Монография. – Москва: РУСАНС, 2017. – 282 с.; Кильбаева Т.Б. Философские аспекты формирования человеческого капитала: Автореф. дисс.я д.ф. (PhD); Нестеров А., Аширов Г. Национальное богатство и человеческий капитал // Вопросы экономики. 2003. №2; Смирнов В.Т., Сколякова И.В. Человеческий капитал: содержание и виды, оценки и стимулирование. – М.: Машиностроение-1, - Орел: Орел ГТУ, 2015. – 513 с.; Бирбков В. Детерминанты развития человеческого капитала Республики Казахстан. – США: LAB/ lambert academic publishing, 2014; Петренко Т., Егорова И., Коваленок С. Исследование человеческого капитала как фактора экономического роста. – США: LAB/ lambert academic publishing, 2012; Подберезкин А. Национальный человеческий капитал. В 5 томах. Том 1, Роль идеологии в модернизации России. – М.: МГИМО-Университет, 2012. – 470 с.

muammosi<sup>6</sup>, Q.Nazarov milliy qadriyatlarning inson kapitali rivojlantirishdagi ahamiyati, F.Yuldasheva globallashuv jarayonida ma'naviy qadriyatlar, G.G'affarova inson kapitalini rivojlantirishda raqamlashtirish va milliy qadriyatlarning ahamiyati<sup>7</sup>, G.Jalalova bilim va ilmiy bilimlar transformatsiyasi inson kapitalini shakllantirish omili<sup>8</sup>, M.Sharipov intellektual inson kapitalining mohiyati va xususiyatlari, sog'liq kapitali kategoriyasi, uning turlari, manbalarini<sup>9</sup> falsafiy tahlil etishgan.

Mazkur tadqiqotlar O'zbekistonda inson kapitalini shakllantirish omillari, ijtimoiy rivojlanishda inson kapitalining ahamiyati masalalariga ulkan hissa qo'shgan. Biroq zamonaviy sharoitlarda inson kapitali tushunchasining falsafiy mohiyati, uni rivojlantiruvchi omillar, yangilanayotgan O'zbekistonda inson kapitalini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari hamda ijtimoiy-falsafiy asoslari, mavjud muammolar va ularning tahliliga qaratilgan maxsus tadqiqot ishi olib borilmagan.

---

<sup>6</sup> Abdullayeva M.N., G'affarova G.G'. Inson kapitali ta'lim prizmasida // Globallashuv sharoitida O'zbekistonda innovatsion g'oyalarning huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy-falsafiy, ta'limiy yo'nalishlarining rivojlanish istiqbollari: Respublika onlayn anjuman materiallari. – Toshkent, 2020.

<sup>7</sup> Gaffarova G.G. Human capital as the basis of society development // International Scientific Journal Theoretical & Applied Science. –USA, Harrisburg, 2021. №04(96), -R.455-460; G'affarova G.G', Polvonova S. Inson kapitalini rivojlantirishda milliy qadriyatlarning ahamiyati // Academic reserch in educational sciences, 2021. 2(5), -B.779-786.; Gaffarova G. Chelovecheskiy kapital v usloviyax sifrovizatsii Uzbekistana. Intellektualnaya kultura Belarusi: duxovno-nravstvenniye traditsii i tendensii innovatsionnogo razvitiya: materialy Pyatoy mejdunar. nauch. konf. T.2. – Minsk: Chetire chetverti, 2020. –S.72-75.

<sup>8</sup> Jalalova G.O. Ilmiy bilimlardagi transformatsiya jarayonlarining epistemologik mohiyati. Diss.fals.fan.doktori (PnD). - Toshkent, 2018.

<sup>9</sup> Sharipov M. Intellektual inson kapitalining mohiyati, manbalari va xususiyatlari // ARES, Academic Research in educational sciences. Vol.2, Issue 6, 2021. –B.694-703.; Sharipov M. Sog'liq kapitali kategoriyasi, uning turlari, manbalari va ahamiyati // ARES, Academic Research in educational sciences. Vol.2, Issue 6, 2021. –B.710-719.



## MUNDARIJA

<b>KIRISH.....</b>	<b>3</b>
<b>1. INSON KAPITALI TUSHUNCHASINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....</b>	<b>7</b>
1.1. Inson kapitali tushunchasining falsafiy tahlili.....	7
1.2. Inson kapitali tushunchasiga oid yondashuvlar.....	21
1.3. Inson kapitali va inson omili tushunchalarining o‘zaro aloqadorligi...	35
<b>2. RAQAMLASHGAN JAMIYATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: FALSAFIY TAHLI.....</b>	<b>51</b>
2.1. Raqamlashgan jamiyatda inson kapitalini shakllanishining o‘ziga xos xususiyatlari.....	52
2.2. Ta’lim transformatsiyasiga raqamlashtirishning ta’siri.....	62
2.3. Raqamlashgan ta’limda inson kapitalining rivojlanishi.....	67
<b>3. TARAQQIYOT STRATEGIYASIDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI.....</b>	<b>73</b>
3.1. Inson kapitalini rivojlantirishda ta’lim bosh omil sifatida.....	74
3.2. Ma’naviy yangilanishlarning inson kapitalini rivojlantirishdagi ahamiyati.....	92
3.3. “Yangi O‘zbekiston-ma’rifatli jamiyat” konsepsiyasi va “Raqamli O‘zbekiston 2030” strategiyasida inson kapitalini rivojlantirishning o‘mi.....	106
<b>XULOSA.....</b>	<b>114</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....</b>	<b>117</b>

Shakl A-5 Garnitura tayms. Chop etishga ruxsat berildi 2025- yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_. Chop etiladigan shartli varog‘lar \_\_\_ tiraj \_\_\_ nusxada. Chirchiq OTQMBY bosmaxonasida chop etildi 2025- yil “\_\_\_” \_\_\_\_, A.Temur ko‘chasi -15.

